


**2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)**

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimizda 5534 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2138 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4288 ta (15,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 32947 tani tashkil etgan.






## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga 32947 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 15,0 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,4 % savdo, 21,0 % sanoat, 9,0 % qurilish, 6,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 5,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,8 % axborot va aloqa, 2,3 % sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 24,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.11.2019 yil	
	01.11.2018 yil	01.11.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>28659</b>	<b>32947</b>	<b>115,0</b>	<b>100</b>

*shundan:*

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1989	2141	107,6	6,5
Sanoat	5792	6913	119,4	21,0
Qurilish	2500	2977	119,1	9,0
Savdo	7313	8703	119,0	26,4
Tashish va saqlash	1095	1257	114,8	3,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1359	1653	121,6	5,0
Axborot va aloqa	560	594	106,1	1,8
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	650	750	115,4	2,3
Boshqa turlari	7401	7959	107,5	24,2

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10688 ta), Asaka (3027 ta), Shahrixon (2396 ta), Andijon (2386 ta), Qo'rg'on tepa (1666 ta) va Oltinko'l (1635 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'z (848 ta), Ulug'nor (626 ta) tumanlari hamda Xonobod (593 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 31600 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4367 ta (16,0 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Andijon shahri (10311 ta), Asaka (2999 ta), Andijon (2213 ta), Shahrixon (2123 ta), Oltinko'l (1598 ta) va Izboskan (1562 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bo'z (840 ta), Ulug'nor (618 ta) tumanlari hamda Xonobod (587 ta) shahrida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 5534 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 2138 taga ko'pdir.

**Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Andijon shahri (1489 ta), Asaka (530 ta), Shahrixon (453 ta), Andijon (403 ta), Izboskan (300 ta) va Marhamat (284 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Baliqchi (223 ta), Jalaquduq (220 ta), Xo'jaobod (211 ta), Bo'z (192 ta), Buloqboshi (187 ta), Xonobod shahri (166 ta) hamda Ulug'nor (95 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2059 ta), sanoat (1467 ta), qurilish (536 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (344 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (215 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (106 ta) va axborot va aloqa (88 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalarini**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yil 1-noyabr holatiga 26786 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5969 ta, oilaviy korxonalar – 1062 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 19175 ta va boshqalar 580 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat  
ko'rsatayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Mas'uliyati cheklangan  
jamiyati



Xususiy korxona




Oilaviy  
korxona




Unitar korxona



Aksiyadorlik  
jamiyati



Boshqalar



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 291 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 84 taga yoki 40,6 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va boshqa davlatlar hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 291 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxona va tashkilotlarning eng yuqorisi Andijon shahri (113 ta), Andijon (27 ta), Shahrixon (19 ta), Asaka (17 ta) va Oltinko'l (16 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Qo'rg'ontep, Bo'z va Izboskan (8 ta), Xo'jaobod va Jalolquduq (7 ta), Paxtaobod hamda Ulug'nor (6 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda




### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 154 tasi qo'shma korxonalar, 137 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




### Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning faollik darajasi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Andijon viloyati</b>	<b>291</b>	<b>100,0</b>
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	16	5,5
Andijon	27	9,4
Baliqchi	12	4,1
Bo'z	8	2,7
Buloqboshi	12	4,1
Jalolquduq	7	2,4
Izboskan	8	2,7
Ulug'nor	6	2,1
Qo'rғ'ontepa	8	2,7
Asaka	17	5,8
Marhamat	12	4,1
Shahrixon	19	6,5
Paxtaobod	6	2,1
Xo'jaobod	7	2,4
Andijon sh.	113	38,9
Xonobod sh.	13	4,5

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 77 tani tashkil qilgan.

Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar (32 ta yoki jamidagi ulushi 41,5 %), Andijon (8 ta yoki 10,4 %), Honabod sh (5 ta yoki 6,5 %), Asaka, Baliqchi, Bo'z va Oltinko'l tumanlari (4 ta yoki 5,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Paxtaobod va Xo'jaobod (2 ta yoki 2,6 %), Jalolquduq, Ulug'nor hamda Qo'rg'ontepa (1 ta yoki 1,3 %), tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Izboskan tumanida tashkil etilmagan.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 16 ta, Turkiya Respublikasi - 15 ta, Qirg'iziston Respublikasi - 14 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 11 ta, Koreya Respublikasi - 6 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 5 ta, Hindiston Respublikasi - 3 ta va Qozog'iston Respublikasi - 3 ta hamda boshqa davlatlar - 4 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Belarusiya, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat 36 ta (46,8 %), savdo 12 ta (15,6 %), qurilish 11 ta (14,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (7,8 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda 2 ta (2,6 %), axborot va aloqada 4 ta (5,2 %) tashkil etgan.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxona va mikrofirmalar**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 26667 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 18,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 9198 tasi (34,4 %) Andijon shahri, 2602 tasi (9,8 %) Asaka, 1919 tasi (7,2 %) Andijon, 1759 tasi (6,6 %) Shahrixon hamda 1328 tasi (5,0 %) Oltunko'l tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamidagi ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 26667 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 8226 tasi (30,8%) - savdo, 6562 tasi (24,6%) - sanoat, 2854 tasi (10,7%) - qurilish, 1990 tasi (7,5%) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1575 tasi (5,9%) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 1206 tasi (4,5%) - tashish va saqlash, 647 tasi (2,4%) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 559 tasi


(2,1%) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 3048 tasi (11,5%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 5308 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2477 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Andijon shahri (1419 ta), Asaka (515 ta), Shahixon (438 ta), Andijon (393 ta) va Izboskan tumanlari (291 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Bo'z (182 ta), Buloqboshi (175 ta), Xonobod shahrida (165 ta) hamda Ulug'nor (90 ta) tumanlari tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2059 ta), sanoatda (1466 ta), qurilishda (536 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (344 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (104 ta) hamda axborot va aloqada (88 ta) tashkil etilgan.


### **Oilaviy korxonalar**

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 1095 tani tashkil etib, ulardan 1062 tasi yoki 97,0 % faoliyat ko'rsatayotgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 88,7 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 42,1 % yoki 447 tasi sanoat, 17,8 % yoki 189 tasi savdo, 14,0 % yoki 149 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,3 % yoki 141 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 11 tasi qurilish, 0,7 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 0,7 % yoki 7 tasi axborot va aloqa hamda 9,3 % yoki 99 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdoda, eng kami esa qurilish, tashish va saqlash hamda axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
<b>Andijon viloyati</b>	<b>524</b>	<b>100,0</b>
<i>Tuman va shaharlar:</i>		
Oltinko'l	23	4,4
Andijon	77	14,7
Baliqchi	8	1,5
Bo'z	68	13,0
Buloqboshi	42	8,0
Jalolquduq	1	0,2
Izboskan	15	2,9
Ulug'nor	14	2,7
Qo'rg'ontep'a	17	3,2
Asaka	141	26,9
Marhamat	7	1,3
Shahrixon	34	6,5
Paxtaobod	5	1,0
Xo'jaobod	2	0,4
Andijon sh.	53	10,1
Xonobod sh.	17	3,2

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 524 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 431 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Asaka (141 ta), Andijon (77 ta), Bo'z (68 ta) tumanlari va Andijon (53 ta) shahri hissasiga to'g'ri keladi. Eng kami Baliqchi (8 ta), Marhamat (7 ta), Paxtaobod (5 ta), Xo'jaobod (2 ta) va Jalaquduq (1 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 40,8 % yoki 214 tasi sanoat, 27,5 % yoki 144 tasi savdo, 15,8 % yoki 83 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 4,0 % yoki 21 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 5 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 0,2 % yoki 1 tasi tashish va saqlash hamda 9,5 % yoki 50 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

**KTYADR** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevralndagi 66-son qaroriga asosan ro'yxatdan o'tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.



**Andijon viloyati statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:74-228-29-74**